

OLDI-SOTDI SHARTNOMASI - 4

G'ozg'on shahar

19.07.2022 yil

« BEST TOOLS » mas'uliyati cheklangan jamiyati «Sotuvchi» deb yuritiladi, Nizom asosida harakat qiluvchi rahbari M.Jamolov nomidan, bir tomondan G'ozg'on shahar Xalq ta'limi bo'limi nomidan Ustavi asosida harakat qiluvchi, keyingi o'rinlarda «Sotib oluvchi» deb yuritiladi raxbar A.Qarshiev nomidan, ikkinchi tomondan quyidagilar to'g'risida mazkur shartnomani tuzdilar:

1.SHARTNOMA PREDMETI

Sotuvchi o'ziga tegishli tovarni Sotib oluvchiga mulk qilib topshirish, Sotib oluvchi esa ushbu tovarni qabul qilish va haqini to'lash majburiyatini oladi.

Tovar haqida ma'lumotlar: Ushbu shartnomaning 1.3 kismidagi 1 jadvalida kursatilgan.

1.3.

No	Tovarning nomi	Ulchov birligi	Miqdori	Baxosi	Summasi
1	Proektor	dona	1	5867000	5 867 000
2	Televizor	dona	3	4255000	12 765 000
3	Televizor	dona	2	5933000	11 866 000
4	Televizor	dona	1	3166000	3 166 000
5	Kamera	dona	5	573000	2 865 000
Jami:					36 529 000

1.4. Tovarning umumiy baxosi 36 529 000 (O'ttiz olti million besh yuz yigirma to'qqiz ming) so'mni tashkil etadi.

2. TO'LOV SHARTLARI

2.1. Ushbu shartnoma bo'yicha to'lov quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

SHartnoma 5 bank kuni ichida Sotuvchiga oldindan avans tariqasida 30 foizi miqdorida pul to'laydi, qolgan 70 foizi to'lash 10 bank ish kunida amalga oshiriladi.

2.2. To'lov shakli: Pul Sotuvchining xisob raqamiga o'tkazish yuli bilan amalga oshiriladi.

3. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI

Sotuvchining majburiyatlari:

SHartnomaning 2.1 bandi Sotib oluvchi tomonidan bajarilgan sanadan boshlab tovarni 10 bank kun ichida Sotib oluvchiga topshirishi shart.

Tovarni va unga oid xujjatlarni ushbu shartnoma shartlari asosida Sotib oluvchiga topshirish.

Tovarni shartnoma shartlariga javob beradigan miqdorda va sifatda, tashish jarayonida uning buzilishi, sinishi yoki yuk bulishi mumkinligini istisno kiladigan darajadagi idishlarda va joylashtirilgan xolda topshirish.

Sotib oluvchining majburiyatlari:

Tovarni 2 kunlik muddatda kuzdan kechirish. Tovarning mazkur shartnoma talablariga mos kelmasligi aniklangan takdirda, (yoki nobut bo'lganda zarar etganda) Sotib oluvchi shu muddatda Sotuvchiga aniklangan nomuvofiqliklar haqida ma'lumotlarni aks ettiruvchi xabarnoma (reklamatsiya) yuboradi.

Sotuvchi sifati lozim darajada bo'lmagan tovarlar yuborilganligi haqida xabarnomani olgan paytdan boshlab Tovarni almashtirish uchun (muddat) 7 kun ichida sifati lozim darajada bo'lmagan tovarni sifatligiga almashtirish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

Tovarlarni etkazib berish muddatlari kechiktirib yuborilgan, to'liq etkazib berilmagan hollarda, tovar etkazib beruvchi sotib oluvchiga kechiktirilgan xar bir kun uchun (majburiyat bajarilmagan kismining Tovar etkazilmagan taqdirda to'lanadigan penya miqdori) 0.5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning

umumiy summasi etkazib berilmagan tovarlar baxosining (To'lanadigan penyaning maksimal miqdori) 50 foizdan oshib ketmasligi lozim. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni tovarlarni etkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to'liq etkazib bermaslik oqibatida etkazilgan zararni koplashdan ozod etmaydi.

Agar etkazib berilgan tovarlar sifati, assortimenti va navi bo'yicha standartlar, texnik shartlar, namunalariga (etalonlarga) qonun xujjatlarida yoki xo'jalik shartnomasida belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, sotib oluvchi tovarlarni kabul kilish xamda ularning haqini to'lashni rad etib, etkazib beruvchidan sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar kiymatining Etkazilgan tovarning sifati yomon bo'lganda (undiriladigan jarima miqdori umumiy summaing) 20 foizi miqdorida jarima undirib olishga, agar tovarlar haqi to'lab kuyilgan bulsa, to'langan summani belgilangan tartibda kaytarishni talab kilishga xaklidir. Sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar etkazib berganlik uchun jarima etkazib beruvchidan akseptsiz tartibda undirib olinadi.

Etkazib berilgan tovarlar haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun sotib oluvchi etkazib beruvchiga o'tkazib yuborilgan xar bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining (o'z vaqtida amalga oshirilmagan to'lov uchun to'lanadigan penya) 0,4 foizi miqdorida penya to'laydi, ammo kechiktirilgan to'lov summasining (To'lanadigan penyani eng yuqori miqdori) 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi.

Taraflarning javobgarlik xolatlarini O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xukukiy bazasi to'g'risidagi» Qonuni bo'yicha amalga oshiriladi.

9. KORRUPSIYAGA QARSHI KELISHUV

SHartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qoidalarga, shu jumladan amaldagi qonunlarga rioya etilishini ta'minlaydi; ya'ni ular, ularning xodimlari, affillangan shaxslar, benefitsiari va shartnomani amalga oshirishdagi xamkorlari, pudratchilari tomonidan bir-biriga yoki davlat ishtirokidagi tashkilot xodimiga pora berish yoki pora berishda vositachilik qilishda, moddiy yoki nomoddiy naf olishdan tiyilishi lozim. Tomonlar ushbu xarakatlarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilinishini kafolatlaydi.

Tomonlar korrupsiyaga qarshi qoidalar buzulganda yoki asosli gumonlar yuzaga kelganida darhol yozma ravishda (elektron pochta orqali) yoki ishonch telefoni (78 150 26 03) orqali bir-birini xabardor qilish majburiyatini oladi. Bunda tomonlar yuzaga kelgan xolatga oydinlik kiritish maqsadida yozma izox talab qilish xuquqiga ega va murojaatini olgan tomon 10 (o'n) ish kuni mobaynida tushintirish berishi yoki o'z fikrini bildirishi mumkin.

Mazkur talablari bajarilmaganda, shu jumladan belgilangan muddatda korrupsion xavf-xatar aniqlanganda shartnomani bekor qilish huquqiga ega.

Ushbu bobda ko'rsatilgan asoslar bo'yicha shartnomani bir tomonlama bekor qilish talab qilgan tomonga etkazilgan zararlarni qoplash qonunchilikda ko'rsatilgan tartibda amalga oshiriladi. Ushbu bobning majburiyatlarini buzgan tomon esa shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishi oqibatida ko'rilgan zararlarni qoplashni talab qilishiga xaqli emas.

SHARTNOMA MAJBURIYATLARINI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK

Mazkur shartnomani bajarmaganlik va (yoki) lozim darajada bajarmaganlik uchun aybdor taraf boshqa tarafga etkazilgan zararni to'laydi, hamda O'zbekiston Respublikasi "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xuquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunning 25-32 moddalari, O'zbekiston Respublikasi Fuqorolik kodeksining 45 va 48-moddalariga muvofiq fuqorolik-huquqiy javobgarlik, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 175, 176-1, 212-moddalarida nazarda tutilgan javobgarlik choralari qo'llaniladi.

SHARTNOMANI UZGARTIRISH VA BEKOR KILISH TARTIBI

Ushbu shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar ular yozma ravishda rasmiylashtirilgan.

SHartnomani muddatidan oldin bekor qilishga taraflarning kelishuviga muvofiq yoki O'zbekiston Respublikasini amaldagi qonun xujjatlarida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra, etkazilgan zarar qoplangan xolda yul kuyiladi.

FORS-MAJOR VA JAVOBGARLIKDAN OZOD ETISH.

Tomonlarning xoxish istagiga mutloqo bog'liq bo'lmagan hollarda noqulay ob-havo sharoitlari, zilzila, suv toshqini va boshqa tabiiy ofatlar (fors-major) tufayli to'lab berilmaganligi yoki to'lov summasi kechiktirilganligi shartnoma shartlarini ijro etishi buzilgan deb hisoblanmaydi va ishbu holatda tomonlarni shartnoma bajarish muddati kelishilgan muddatga kechiktiriladi.

NIZOLARNI XAL KILISH TARTIBI

Ushbu shartnoma bo'yicha yoki u bilan bog'liq xolda taraflar o'rtasida kelib chiqadigan barcha nizolar yozma talabnoma bildirish tartibiga rioya qilingan xolda xal etiladi.

Bildirgan talabnomasiga qonunda belgilangan bir oylik muddat ichida javob olmagan yoki talablari kanoatlanirilmagan takdirda, xukuki buzilgan deb xisoblovchi taraf nizoni xal kilish uchun da'vo arizasi bilan javobgar joylashgan iqtisodiy sudiga murojaat kilishga xakli.

BOSHQA SHARTLAR

SHartnoma yuridik xizmat ko'rsatish markazidan qonunga muvofiqligi to'g'risida huquqiy xulosa olingandan so'ng taraflar tomonidan imzolanib g'aznachilik bo'linmasidan o'tgan kundan boshlab qonuniy kuchga kiradi.

SHartnoma ikki nusxada tuzilgan bo'lib, ikkalasi xam bir xil yuridik kuchga ega deb xisoblanadi va taraflarga bir nusxadan beriladi.

SHartnomaning amal kilish muddati 31.12.2022 yilga qadar etib belgilandi.

Kushimcha shartlar: Qo'shimcha shartlar.

8. TARAFLARNING YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI.

Sotuvchi:

«BEST TOOLS» MCHJ
Manzil: Nurota t. T.Bozorov ko'chasi 21 uy
Tel: +99897-365-00-44
INN:306761988 MFO: 00196
X.R: 20208000905128839001

Sotib oluvchi:

G'ozg'on shahar XTB
Manzil: G'ozg'on sh. Tumar MFY
Tel:+99893-000-31-27
INN:207332526 MFO: 00014
X.R: 400122860124127092100075008

Raxbar



M. Jamolov

Raxbar



A. Qarshiev

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA
HUQUQIY XULOSA**
№

1. Loyihaning turi:

Shartnoma

2. Loyihaning nomi:

Oldi-sotdi shartnomasi

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:

G'ozg'on shahar xalq ta'limi bo'limi, 19.07.2022 yil

Huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra,

XULOSA:

G'ozg'on shahar xalq ta'limi bo'limi hamda "Best Tools" ma'sulyati cheklangan jamiyati o'rtasidagi umumiy so'mmasi 36 529 000 (o'ttiz olti million besh yuz yigirma to'qqiz ming) so'mlik 6 dona telivezor, 1 dona kamera, 1 dona proektor mahsulotini oldi-sotdi shartnomasi loyihasi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'RQ-684-son Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentabrdagi PQ-3953-son "O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida belgilangan tartibda tuzilgan.

Taraflarning javobgarligi me'yori va nizolarni hal etish tartibi qonunchilikka, xususan O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgustdagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi" 670-I-son Qonuni talablariga mos keladi.

Shartnoma loyihasi amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsulti



F.Jumayev
19.07.2022 yil